

BATIROVA Nilufar

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi,
Islom iqtisodiyoti va moliyasi,
ziyorat turizmi kafedrası dotsenti v.b. PhD
n.batirova@iiaau.uz*

ISLOM MOLİYAVIY MUASSASALARIDA QARZ INSTRUMENTIDAN MOLIYALASHTIRISH MODELI SIFATIDA FOYDALANISH

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДОЛГОВОГО ИНСТРУМЕНТА В КАЧЕСТВЕ ФИНАНСОВОЙ МОДЕЛИ В ИСЛАМСКИХ ФИНАНСОВЫХ ИНСТИТУТАХ

USE OF DEBT INSTRUMENT AS FINANCING MODEL IN ISLAMIC FINANCIAL INSTITUTIONS

Annotatsiya. Hozirgi kunda islom moliyasi rivojlanib borayotgan sohalaridan biridir. Islom banklarida moliyalashtirish instrumentlaridan biri sifatida “qarz” instrumentidan foydalanish amaliyoti mavjuddir. Ushbu instrumentdan zakot bilan bir qatorda ijtimoiy himoya masalalarida ham faol ravishda foydalaniladi. Ushbu maqolada qarz munosabati, uning mazmun mohiyati, ushbu munosabatning to‘g‘ri bo‘lish shartlari ochib berilgan. Banklardagi joriy hisobvaraqlarni hozirgi kundagi ahamiyati, ularning o‘ziga xos xususiyatlari bayon etilgan. SHuningdek, joriy hisobvaraqlar va u bilan bog‘liq operatsiyalarning qarz munosabatlari bilan solishtirma tahlili keltirilgan. Xulosada banklar uchun bu instrument turidan foydalanishning ijobiy jihatlari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar. Qarz, joriy hisob, bank, operatsiya, moliya, islom iqtisodiyoti, risk.

Аннотация. Сегодня исламские финансы являются одним из развивающихся направлений. В исламских банках существует практика использования «долгового» инструмента в качестве одного из инструментов финансирования. Этот инструмент активно используется в вопросах социальной защиты, вместе с заятом. В данной статье описаны долговые отношения, их содержание и условия правомерности этих отношений. Описано значение текущих счетов в банках на сегодняшний день и их особенности.

Также проводится сравнительный анализ текущих счетов и связанных с ними операций с долговыми отношениями. В заключении обосновываются положительные стороны использования данного вида инструментов для банков.

Ключевые слова. Долг, текущий счет, банковское дело, операции, финансы, исламская экономика, риск.

Annotation. Today, Islamic finance is one of the developing areas. In Islamic banks, there is a practice of using a “debt” instrument as one of the financing instruments. This tool is actively used in matters of social protection, together with zakat. This article describes debt relations, their content and the conditions for the legitimacy of these relations. The importance of current bank accounts today and their features are described. A comparative analysis of current accounts and related operations with debt relations is also carried out. In conclusion, the positive aspects of the use of this type of instruments for banks are substantiated.

Keywords. Debt, current account, banking, operations, finance, Islamic economics, risk

KIRISH

Iqtisodiyotda qarz va majburiyat so‘zlari ba’zida sinonim sifatida ishlatiladi. Aslida majburiyat o‘z vaqtida savdo operatsiyalari bo‘yicha to‘lovlarning amalga oshmaganini ham bildiradi. Korxona nuqtai nazaridan Majburiyat - bu shaxs yoki kompaniyaning qarzi bo‘lib, odatda pul summasi ko‘rinishida bo‘ladi. Majburiyatlar vaqt o‘tishi bilan iqtisodiy foyda hisobidan, shu jumladan pul, tovarlar yoki xizmatlarni o‘tkazish orqali to‘lanadi. Korxona balansining o‘ng tomonida qayd etilgan passivlarga ssudalar, kreditorlik qarzlari, garovlar, kechiktirilgan daromadlar, obligatsiyalar, kafolatlar va hisoblangan xarajatlar kiradi. Umuman olganda, majburiyat bir tomon va boshqa tomon o‘rtasidagi hali tugallanmagan yoki to‘lanmagan talablardir. Yuqoridagi holat, aslida majburiyat mohiyatan qarz munosabatlariga nisbatan, aslida kengroq tushuncha ekanligini ko‘rsatadi. Eng keng tarqalgan majburiyatlar odatda kreditorlik qarzlari hisoblanadi. Kreditorlik qarzlari eng katta majburiyatlar sirasiga kiradi.

Qarz deganda iqtisodiyotda kreditor (qarz beruvchining) qarzdorga (qar oluvchi) ularni kelajakda qaytarish yoki haq to‘lash sharti bilan beradigan majburiyati tushuniladi. Qarz guruhlash nuqtai nazaridan davlat, hududiy, mahalliy yoki shaxsiy qarzlarga bo‘linadi. Shuningdek,

davlatning qimmatli qog'ozlarni (qarz majburiyatini anglatuvchi) chiqarishi natijasida yuzaga keladigan majburiyatlari ham qarz majburiyati deyiladi.

Qarzdorlik kichik doirada ham katta doirada ham bo'lishi mumkin. Jismoniy shaxslarning qarzdorligi, masalan, uy egasining davlat byudjetiga mulk solig'i yoki daromad solig'i bo'yicha qarzdorligi yoki korxona nuqtai nazaridan mol yetkazib beruvchilarga qarzlar, oylik kommunal xizmatlar va shunga o'xshash xarajatlar, ish haqi va kreditorlik qarzlarini o'z ichiga olishi mumkin. Ijara, kechiktirilgan soliqlar, ish haqi va nafaqa majburiyatlari kabilar ham qarz majburiyatlari ro'yxatiga kiritilishi mumkin.

ASOSIY QISM

Korxona va tashkilotlarning tashkil topgan mablag'larining manbalari o'z mablag'lari bo'lmagan holatda u qarz majburiyatlari hisoblanadi. Korxonaning qarz majburiyatlari jalb etilgan mablag'lar bo'lib, ular korxonaning aktivlari hisobiga qoplanadi. Odatda, korxona va tashkilotlar uzoq muddatli majburiyatlarni to'lash uchun unchalik ko'p likvidlikka muhtoj emas. Ular har doim ularni to'lash uchun kelajakda ko'proq pul ishlashlari mumkin bo'ladi. Biroq, investorlar hali ham korxonaning uzoq muddatli qarz majburiyatlarini to'lash uchun yetarli pul oqimi salohiyatiga ega ekanligini ko'rishni xohlashlari mumkin. Bu esa qarz majburiyati mavjud joyda qarz xatari ham mavudligini ko'rsatadi. Qarz xatari – shartnomadagi ikkinchi tomon, shartnoma shartlari bo'yicha o'z majburiyatlarini o'z vaqtida va to'la hajmda bajara olmagan holatda yuzaga keladi. Ushbu xatar korxona va tashkilotlar, shuningdek, banklarda kredit va savdo portfelida ishtirok etishida yuzaga kelishi mumkin. Qarzdor qarzni so'ndirish bo'yicha o'zining majburiyatlarini o'z vaqtida va to'la hajmda bajara olmasa, kredit portfelida kredit xatari yuzaga keladi. U odatda aktivlarning sifati va kasod (defolt) ehtimoli/shartnomani bajara olmaslik bilan uyg'unlashadi. Kredit xatarini qisman diversifikatsiya qilsa bo'ladi, lekin uni butkul yo'q qilib bo'lmaydi.

Umumiy ma'noga ko'ra, qarz munosabatlari savdo-sotiq munosabatlariga o'xshaydi. Qarz bu muayyan narsani aynan shu miqdorda qaytarib berishlik sharti bilan ikkinchi shaxs tasarrufiga berishdir. **Lug'aviy ma'noga ko'ra**, qarz

«bo'lak»dir, ya'ni berilgan qarz uni beruvchi kishiga tegishli mol-mulkning bir qismidir. **Istilohiy ma'noga ko'ra**, qarz – bu ma'lum bir mol-mulkni xuddi shu miqdorda (ko'rinishda) qaytarib berish sharti bilan o'zga bir shaxsga topshirishdir. Xanafiy mazhabi ta'rifiga ko'ra, qarz – maxsus bir kelishuvki, unda bir shaxsning boshqa bir shaxsga xuddi shu miqdorda qaytarish talabi bilan muayyan mol-mulkni berishdir [1,15].

Qozog'istonlik olim Ye.A. Baydaulet qalamiga mansub "Islomiy moliya asoslari" kitobida "qarzi hasan"ga quyidagicha ta'rif berilgan: "Qarzi hasan" - o'zida foizsiz qarzni aks ettiradi, bunda qarzdor qarz beruvchi (kreditor)ga qarzning asosiy miqdorini qaytarish majburiyatini oladi [2,74].

Islom iqtisodiyotida alohida e'tibor qaratiladigan jihatlardan biri ijtimoiy himoyaga yo'naltirilganligidir. An'anaviy iqtisodiyot bilan islom iqtisodiyotida qarz munosabatlarida eng asosiy farqli jihatlardan biri qarzni foiz daromadi manbai sifatida e'tirof etmasligidir. Qarz munosabati bir evassiz, qaytarib berish sharti bilan qilinuvchi hatti harakatdir. Qarz majburiyatini ado etishni kutish hisobiga to'lov olinishi riboviy masala sifatida qaraladi. Bu holat qarz beruvchi tomonga kafolatlangan foydani ta'minlaydi. U hech qanday risksiz pul mablag'laridan daromad olish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa islom iqtisodiyotining qonun qoidalariga to'g'ri kelmaganligi tufayli ta'qiqlanadi.

Qarz munosabatlari moliyaviy munosabatlar tarkibiga kirganligi tufayli ma'lum bir shartlarga qat'iy amal qilishni talab etadi. Qarz munosabatlarida qarzga beriladigan mol-mulk aniq belgilangan bo'lishi, qarz oldi berdi so'zlari o'tgan zamonda aytilishi, qarzga beriladigan mol-mulk qarzga berishga yaroqli va qiymatga ega bo'lishi, muqobillik xususiyatini o'zida ifoda etishi, ishtirokchilar balog'atga yetgan va aqli hushi joyida bo'lishi lozim, shuningdek, holatga qarab, qarz munosabatlari o'zaro xujjatlashtirilishi, guvohlarning ishtiroki, kafolat va garov talab etiladi.

Ekin, chorva mollari, ko'chmas mulk va boshqa o'lchash va tavsiflash mumkin bo'lgan moddiy aktiv va qiymatliklardan ham qarz obyekt sifatida foydalanish mumkin. Qarzning vazni, hajmi, miqdori va boshqa parametrlari aniq ko'rsatilishi lozim. Qarz shartnomasining eng muhim tamoyillaridan biri

qarz munosabatlari ishtirokchilarining hech biriga imtiyoz berilmasligidir. SHartnomalarni yozma ravishda amalga oshirilishi har ikki tomonning huquqlarini himoya qilishga yordam beruvchi muhim omillardan hisoblanadi. Qur'ondan qarz munosabatlariga dalil sifatida Baqara surasi 282 – oyat keltiriladi. Ushbu oyat “Oyati mudoyana” ham deb nomlanadi. Unda ham qarz shartnomasini tuzish tartibi batafsil bayon etilgandir.

«Ey imon keltirganlar! Ma'lum muddatga qarz oldi-berdi qilsangiz, uni yozib qo'yinglar. Orangizda bir kotib uni adolat bilan yozsin. Hech bir kotib Alloh bildirganidek qilib yozishdan bosh tortmasin. U yozsin, haq zimmasiga tushgan kishi esa aytib tursin, Robbiga taqvo qilsin va undan hech narsani kamaytirmasin. Agar haq zimmasiga tushgan kishi esipast, zaif yoki aytib tura olmaydigan bo'lsa, uning valiyi adolat bilan aytib tursin. Erkaklaringizdan ikki kishini guvoh qiling. Agar ikki er kishi bo'lmasa, o'zingiz rozi bo'ladigan guvohlardan bir er kishi va ikki ayol kishi bo'lsin, ikkovidan (ayollardan) biri adashsa, biri boshqasining esiga soladi. Chaqirilgan vaqtda guvohlar bosh tortmasinlar. Kichik bo'lsa ham, katta bo'lsa ham, muddatigacha yozishingizni malol olmang. Mana shu Allohning huzurida adolatliroq, guvohlikka kuchliroq va shubhalanmasligingiz uchun yaqinroqdir. Ammo oralaringizda yurib turgan naqd savdo bo'lsa, yozmasangiz ham sizga gunoh yo'q. Oldi-sotdi qilganingizda guvoh keltiring, kotib ham, guvoh ham zarar tortmasin. Agar (aksini) qilsangiz, albatta, bu fosiqligingizdir. Allohga taqvo qilinglar, Alloh sizga ilm berur. Alloh har bir narsani biluvchi Zotdir» [3,48].

Abu Hurayra (r.a.)dan rivoyat qilinadi:

“Nabiy (s.a.v.): «Kim odamlarning mollarini (qarzga) olib, uni ado etishni iroda qilsa, Alloh undan (yordami ila) ado etadi. Kim yo'q qilishni niyat qilib olsa, Alloh uni yo'q qiladi», dedilar”.

Iqtisodiyotda ham qarzga asoslangan bir qancha moliyalashtirish turidan foydalaniladi. Ularga murobaha, ijara, salam, istisno , sukuk, vadi'a kabi munosabatlarni kiradi (ushbu qarzning moliyalashtirish vositalari keyingi mavzularda yoritilgan). Ko'p holatlarda qarz va ijara munosabatlari bir biriga o'xshab ketadi. Ikkisida ham moliyaviy aktiv ma'lum bir vaqtga foydalanishga beriladi, belgilangan muddat o'tganidan so'ng esa qaytarib beriladi. Bu munosabatlar o'rtasida asosiy farqlarga e'tibor

qaratsak, Qarz munosabatlarida berilgan aktiv ekvivalentiga teng bo'lgan qiymatdagi boshqa aktiv qaytariladi, ijara esa berilgan aktivning o'zi qaytariladi. Qarzda berilgan aktivda qarz oluvchi tomonidan egalik xususiyati shakllanadi va shu sababli qarz oluvchi uning qiymatidagi boshqa aktivni qaytaradi. Ijarada esa ijaraga oluvchida faqat foydalanish huquqi bo'ladi, shu sababli foydalangan muddat uchun haq to'lanadi.

Ijaraga berilgan aktiv uchun ma'lum haq belgilash mumkin. Qarzga beriladigan aktiv esa bundan farq qiladi. Aktiv qarzga berilganda uning egalik huquqi qarz muddati davomida qarz beruvchidan qarz oluvchiga ko'chib o'tadi. SHuningdek, aktivga taalluqli barcha risklar ham qarzorning zimmasiga tushadi. Ya'ni mablag'ga ziyon yetsa to'lash, qarz muddati tugaganida aynan olgan summani qaytarish mas'uliyatini qarzdor o'z bo'yniga oladi. Shunday ekan qarzdor olgan qarzni ishlatib yoki foydalanib daromad topsa ushbu daromad yoki manfaat uning o'ziga bo'ladi. Fiqhiy qoidaga ko'ra, xaroj zominlik bilan birgadir, ya'ni kim zararni bo'yniga olsa foyda ham o'shaniki bo'ladi. Yoki, g'animat g'aromat bilan birgadir, ya'ni jarimani to'lagan o'ljani olishga haqli bo'ladi. Qarzdor to'lashni zimmasiga olib, yana qarz beruvchiga foydani ham bersa adolatli bo'lmaydi. CHunki yana bir fiqhiy qoidaga ko'ra, ajr va zominlik jamlanmaydi, ya'ni foyda va to'lov jam bo'lmaydi. Qarz beruvchi foydadan talab qilib, shu bilan birga yana zararni ham to'latib olishi to'g'ri emas. [4,29].

Qarz oldi-berdisi iqtisodiy munosabat bo'lishi bilan bir qatorda ijtimoiy ahamiyatga ham egadir. SHu sababli u bir necha qoidalarni o'z ichiga oladi. Ikkala tarafning ham yaxshi muomalasi, qarzdor qarzni bir kun qaytarish niyatida olishi, qarzni chiroyli uzishga harakat qilishi, qarz shartnomasining barcha shartlari amalga oshirilishi lozimdir.

Qarz ustiga savdo qilish mumkin emas. Qarz munosabatlarida qarzdor o'z vaqtida majburiyatini amalga oshira olmasligi mumkin, bu holatda, agar boshqa shaxsning unga qarzi mavjud bo'lsa, birinchi shaxsning uchinchi shaxsdan qarzni olish imkoni mavjuddir.

Qarz munosabatlarida qarzga berilgan aktivning ekvivalent qiymatidagi mulk qaytarilar ekan, vaqt o'tishi bilan pulning qadrsizlanishi kuzatilishi mumkin. Iqtisodiy jarayonlar shiddat

bilan bo'layotgan hozirgi davrda inflyatsiya masalasi ham alohida e'tibor talab qilmoqda.

Qarz munosabatlari bo'yicha islom moliyasi tashkilotlarining Buxgalteriya hisobi va audit tashkiloti tomonidan (AAOIFI) 19 standart ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyaviy xarakterga ega hisoblanadi. Ushbu standart qarz shartnomasiga nisbatan shariat qonun qoidalarini batafsil yoritadi. Standart qarz beruvchi muassasa bilan bir qatorda qarz oluvchi muassasaga nisbatan qo'llaniladi. Standart naqdini keyin berish savdosi yoki u bilan bog'liq qarzdorlik munosabatlari, aktivlarni kreditga sotish va investitsion hisoblar bilan bog'liq munosabatlarga nisbatan qo'llanilmaydi. Ushbu munosabatlar uchun alohida standartlar qabul qilingan.

Qarz bu moddiy aktivlarga egalik huquqini keyinchalik uning ekvivalentiga teng bo'lgan aktivni qaytarish majburiyati bilan berishdir.

Qarz munosabati va uni bajarilishi bir qancha elementlarni o'z ichiga oladi. Qarz munosabatlari qarz, salaf yoki qarz munosabatlarini anglatuvchi boshqa so'z yoki harakat yordamida taklif va qabul qilish bilan tuziladi. Qarz munosabatlarida ishtirok etuvchilar aqli raso bo'lishi, shuningdek, o'z mulkini o'zi tasarruf qilish huquqiga ega bo'lishi lozim. Qarz oluvchi uchun eng asosiy shart olingan mablag'larni tasarruf etishning huquqiy qobiliyatidir. Qarz shartnomasidagi predmet bozor qiymatiga ega bo'lgan ekvivalenti mavjud bo'lgan aktiv bo'lishi lozim. Qarz munosabatlarida qarz oluvchi qarzga olingan mol mulk obyektiga egalik qilish orqali uning egasiga aylanadi. SHu sababli, qaytarib berish qarzga berilgan aktivning qiymatiga teng miqdorda amalga oshiriladi. Ushbu munosabatlarda qarz beruvchining foydasiga ortiqcha miqdorni belgilash ta'qiqlanadi. Xoh u aktivning sifati bo'yicha ortiqcha bo'ladimi yoki uning miqdori bo'ladimi, ortig'i moddiy obyekt yoki pul qiymati bo'lsa ham farqi yo'q. Odatda qarz olingan joyda qaytarilishi lozim, ammo shartnomaga qaytarish joyini boshqa joy qilib belgilashga ruxsat beriladi. Qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtasida, avvaldan, ma'lum bir oldi-berdi moliyaviy munosabatlar mavjud bo'lgan holatdagina ushbu munosabatlarni davom ettirishi mumkin bo'ladi, ammo umumiy holatda qarz shartnomasining amal qilish muddati davomida qarz oluvchi qarz beruvchiga mol mulkini taklif qilishi yoki xizmat ko'rsatishi mumkin emas.

Mol mulk berish, hadya yoki xizmat ko'rsatish munosabatlari qarz munosabatlarini amalga oshirish uchun bajarilganga o'xshab qolmasligi lozim. Qarzga berilgan aktivning sifati uchun yoki uning miqdoriga nisbatan ortiqcha mol-mulkni taklif etish, shuningdek, qarzni yakuniy to'lash vaqtida imtiyoz sifatida qo'shimchani taqdim etish mumkin emas (shartnomada bunday shart ko'rsatilmagan va ikkinchi tomondan kutilmagan holatdagina bo'lishi mumkin). Qarz munosabatlarida muddatga oldindan e'tibor qaratish muhim hisoblanadi. Muddatning belgilanishi qarzdorning muddat tugamagunga qadar qaytarmaslik huquqini beradi. SHu bilan bir qatorda qarz beruvchi muddat tugamagunga qadar uni talab qilishga haqli emas. Agar shartnomada muddat ko'rsatilmagan bo'lsa, qarz oluvchi uning iltimosiga binoan qarz beruvchiga qarzga ekvivalent miqdorda badal summasini to'lashi shart. Qarz shartnomasi doirasida oldi-sotdi, ijara kabi shartnomalarni ham belgilashga yo'l qo'yilmaydi.

Qarz berish muassasalariga qarz berish bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatganligi uchun ushbu xizmatlarga ekvivalent bo'lgan qiymatdagi to'lovni olishga ruxsat etiladi. Ammo qarz bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishdan ortiq summani ushlab qolish taqiqlanadi. Haqiqiy sarflangan summadan ortiq bo'lgan to'lovlarni undirish ta'qiqlanadi. Qarzni taqdim etish xizmati bilan bog'liq xarajatlar aniq o'lchanishi lozim, aks holda ortiqcha to'langan summa qarz munosabatlaridan ko'rilgan "foйда" sifatida talqin etilishi mumkin. Odatda, har bir qarz munosabatlari uchun xarajatlar qiymati alohida tartibda hisobga olinishi kerak. Albatta bu holatni amalga oshirishda qiyinchiliklar yuzaga kelsa, u holatda barcha qarzdorlik shartnomasi bo'yicha yuzaga kelgan xarajatlar har bir qarzdorlik shartnomasiga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Albatta, bu taqsimotning to'liq bayonoti korxonaning nazorat bo'limiga taqdim etilishi lozim. Qarzni berish bilan bog'liq xarajatlar tarkibiga faqatgina bevosita xarajatlar qo'shilib, bilvosita xarajatlar (ishchi va hodimlarning ish haqi, bino ijarasi, transport vositalaridan foydalanish, boshqaruv va shunga o'xshash xarajatlar) hisobga olinmaydi.

Qarz munosabatlarini hozirgi kunda zamonaviy ko'rinishlaridan biri sifatida korxona va tashkilotlarning banklardagi "Joriy hisobvaraqlari"ni misol sifatida keltirish

mumkin. Ushbu hisobvaraqdagi summalarni bank korxona va tashkilot talab qilgan paytda to'lab berishi shart hisoblanadi. SHu bilan bir vaqtda banklar ushbu hisob varaqdagi mablag'larni egasi "talab qilgunga qadar" qarzdek ishlata olish hususiyatiga ega hisoblanadi. Aynan shu qismi uni qarz munosabatlariga o'xshashligiga olib keladi. Qarz munosabatlarida, odatda, qarz summasidan ortiqcha summaning to'lanishi yoki talab qilinishi mumkin emas hisoblanadi. Ammo, joriy hisobvaraqlar egalaridan odatda bank va boshqa moliyaviy muassasalar o'z xizmatlari uchun to'lov talab qilishi mumkin bo'lib, muassasaga joriy hisobvaraqlar egalaridan o'z hisobidagi pullarni boshqa hisobvaraqlarga o'tkazish, yechib olish bo'yicha xizmatlarni amalga oshirish, bank kartalarini tayyorlab berish kabi xizmatlarni amalga oshirishga ruxsat beradi. Moliyaviy muassasalarda joriy hisobvaraqlar egalariga bunday hisobvaraqlarni yuritish hamda hisobvaraqdagi pul mablag'larini kiritish va yechib olish bilan bog'liq bo'lmagan xizmatlar yoki imtiyozlarni taqdim etish (moddiy sovg'a salom, moliyaviy rag'batlantirish hisobiga) ga ruxsat etilmaydi. Joriy hisobvaraqlardagi mablag'lardan yoki bank kartalaridan pul yechib olish xizmatlari uchun olinuvchi to'lovlar qarz munosabatlarini bilan bog'liq hisoblanmaydi. Bunda plastik kartalardan naqd pullarni yechib olish bilan bog'liq xizmat haqi uchun talab etilgan to'lovlar oqilona bo'lishi va qarz munosabatlarini doirasidagi foydani istisno etishi lozim. Hozirda banklar tomonidan tadbiriq etilayotgan overdraft kreditlari ham foizsiz asosda tadbiriq etilsa qarz shartnomalariga o'tadi.

Xulosa

Umumiy holatda, qarz munosabatlarida qarz obyektini aniq bo'lishi kerak, bu talab qarz oluvchiga qarz obyektining ekvivalentini to'g'ri qaytarish imkonini beradi. Qarz oldi berdi shartnomasi kompensatsiya shartnomasi bo'lib, qarz obyektini faqatgina o'zaro almashinuvchi, o'rnini bosuvchi aktiv bo'lishi lozim. SHu holatdagina obyekt qarz beruvchiga qaytarilishi mumkin. Olingan qarz obyektini yo'q bo'lib ketgan taqdirda ham uni o'ziga o'xshash aktivlar bilan almashtirish imkonini mavjud bo'lishi kerak. Qarz berilgan joyda uzilishi lozim, ammo boshqa joyda ham uzilishga ruxsat berilishining asosiy sababi qarz oluvchiga

qulaylik tug'dirishdir. Bu holat qarz beruvchining ham qarz oluvchining ham manfaatlariga javob beradi, ularning ikkalasiga ham zarar yetkazmaydi, shuningdek, zarurat tug'ilganda yuzaga keladi. Qarz shartnomasida muddatni belgilash shart va u shartnomalarga rioya qilish majburiyatidan kelib chiqadi. SHartnomada muddatning kechiktirilishi ko'zda tutilgan bo'lsa, qarzning kechiktirilishi ham qonuniy hisoblanadi. Savdo shartnomasida ikki shartga ruxsat berilmaganidek, o'zining egaligida bo'lmagan, mas'uliyati belgilanmagan qarz aktivini ham sotish mumkin emas. SHu sababli qarz va sotish shartnomalarini birlashtirishga yo'q qo'yilmasligiga ishora qilinadi.

Yuqorida banklardagi yuridik va jismoniy shaxslarning joriy hisobvaraqlarini zamonaviy "qarz" munosabatlarini obyektini sifatida olinishining asosiy sabablari quyidagicha:

Bank joriy hisobvaraqdagi mablag'larga egalik qiladi va ushbu mablag'larga tayangan holda shartnomalar tuzishi va investitsiya orqali ularni ko'paytirish yo'llarini amalga oshirishi mumkin. Keyinchalik esa bank talab etilgan paytda ushbu summani qaytarish majburiyatini oladi. Qarz munosabatlarining asosiy mohiyati ham shundadir, ya'ni qarz oluvchi qarzga olingan aktivdan foydalanish va uni o'z maqsadlariga erishish jarayonida iste'mol qilish va foyda olish, so'ngra muddati kelganda yoki talab qilinganda uni ekvivalentini qaytarishdir. Bu esa vadi'a (omomat) dan farq qiladi. Omonatda bir shaxs ikkinchi shaxsga ma'lum muddatga saqlab turish va undan foydalanmagan holda keyinchalik bu mulkni egasiga qaytarish sharti bilan aktivni topshiradi. Bank joriy hisobvaraqlardagi mablag'dan ishlatilgan summani u hatto zarar ko'rgan taqdirda ham talab qilingan paytda qaytarish majburiyatiga egadir. Qarz shartnomasida belgilangan talablarning asosiylaridan biri ham shudir. Omonatda esa agar obyekt e'tiborsizlik yoki ehtiyotsizlik tufayli yo'q bo'lib ketsa, uni qaytarish shart, ammo bu holat kuzatilmasa, obyekt tabiiy holatda yo'q bo'lib ketsa, omonatda ushlovchining bunday majburiyati bo'lmaydi. Bank tomonidan joriy hisobvaraqlar doirasida ko'rsatilgan xizmat uchun haq undirishga ruxsat berilishining sababi ushbu xizmatlar bankning qarzni qaytarish qiymatidan ortiq qismni tashkil qiladi va bank tomonidan mijoz uchun amalga oshirilgan harakatlar va xizmatlar evaziga bunday to'lovlarni olishga haqli hisoblanadi.

Joriy hisobvaraқ egalariга chek hisob-kitoblari hamda bank kartasidan foydalanishda bank tomonidan odatda qo‘shimcha to‘lov kompensatsiyasi talab etilmaydi. Buning asosiy sabablaridan biri shundaki, bank kartalarini ochish yoki chek bilan hisob kitoblarni amalga oshirishdan qo‘shimcha foyda ikkala tomonga ham tegishlidir. SHu sababli ikkala tomonlama foyda bir biriga nisbatan hisoblanadi. Mijoz uchun chek daftarchasi yoki bank kartalarini ochish birlamchi emas, ikkilamchi darajadagi manfaat hisoblanadi, chunki bu tizimni joriy etishdan asosiy maqsad bank o‘zining bir necha maqsadlariga erishish yoki ba’zi muammolarini hal qilish va qulayliklar yaratish uchun o‘rnatilgandir. Bank tomonidan bu tizim qulayliklaridan foydalanish natijasida olinadigan manfaat birlamchi hisoblanadi. Bu jarayon joriy hisobvaraқ egalariining talabi bo‘yicha xohlagan vaqtda bank tomonidan mablag‘ni qaytarish uchun qulaylik tug‘dirish imkonini beruvchi jarayon hisoblanadi. SHu bilan bir qatorda, banklar joriy hisobvaraқ egalariга turli sovg‘alarni taqdim etish mumkin emas, buning asosiy sababi bu sovg‘alar kredit to‘lovi tugamasidan avval beriladi. Bankda joriy hisobvaraқlar yopilmaganligi tufayli, bank doimiy ravishda qarз oluvchi funktsiyasida bo‘lishi mumkin. Ammo, sovg‘alar bankning barcha mijozlariga taqdim etilsa, bu munosabatlar qarздan tashqarida deb qaraladi.

XULOSA

Demak, qarз turli xil operatsiyalarni o‘z vaqtida bajara olmaslik yoki bajarilgan yoki qilingan ishlar bo‘yicha majburiyatlarni bajarish vaqti kelmaganligi tufayli yuzaga kelishi mumkin. Odatda, korxona va tashkilotlarning investitsiya sifatida pul mablag‘larini jalb etish imkoniyatlaridan biri sifatida ham qarз mablag‘lari tushuniladi. Qo‘shimcha ravishda qarз mablag‘larini jalb etish korxona va tashkilotlarning faolit ko‘lamini kengaytirish imkonini beradi. Ushbu qarз mablag‘lar (kredit, obligatsiya va hakozo) uchun to‘lov ham odatda korxona egalari uchun to‘lanadigan (dividend) to‘lovdan arzon bo‘ladi. Bu esa o‘z mablag‘laridan tashqari korxona faoliyatini samarali tashkil etish jarayonida qarз mablag‘larini ham jalb etish zarurligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Абдуллаев Р.В., Дусанов С.М. Ислам иқтисодиётида молиявий муносабатлар. – Тошкент: Тошкент ислом университети, НМБ, 2007. 83 б.
2. Baydaulet Ye.A. Islomiy moliya asoslari. “O‘zbekiston” NMIU, 2019. -432 b.
3. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири / Таржима ва тафсир муаллифи: Абдулазиз Мансур. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2018. – 624 б.
4. Ravshanov A., Abdurasulov B. Islom iqtisodiyotida fiqhiy qoidalar. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2019. – 248 b. Taqi Usmani. An introduction to islamic finance. Karachi. Pakistan. 2014. P. 169.
5. Ayyub Muhammad. Understanding Islamic Finance. -England. John Wiley & Sons Ltd, 2007. P. 505.
6. Байдаулет Е.А. Исламий молия асослари [Матн] // Е.А. Байдаулет. –Тошкент: «O‘zbekiston» НМИУ, 2019. – 505 б.
7. Абдуллаев Р. Ислам иқтисодиётида савдо ва тадбиркорлик. – Т.: «EFFECT-D» нашриёти, 2022. – 232 б.
8. Жўраев Б. Исламий молиялар ва банк тизими. – Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2014. – 464 б.
9. Ҳайдаров Ў.А. Республикамиз тижорат банкларида ислом молия тизимидан фойдаланишни такомиллаштириш. // Иқтисод ва молия / Экономика и финансы 2022, 2(150). Б. 34-39.
10. Dchieche A. and Aboulaich.R New Approach to Model Salam Contract for Profit and Loss Sharing. International Journal of Applied Engineering Research 2018. URL: <https://www.researchgate.net/publication/298714498>
11. Nawawi R.H. Islamic Law on Commercial Transactions, (Kuala Lumpur CERT Publication Sdn. Bhd; 2009).
12. Mamatov B.S., Xujamkulov D.Yu., Nurbekov O.Sh. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. – Т.: Iqtisod-Moliya, 2014. – 475 b.
13. Obiyathullah I.B. Derivatives Instruments and Islamic Finance Some Thoughts For A Reconsideration // International Journal of Islamic Financial Services, 1(1) (1999).
14. Khan M. F. “Islamic futures and their markets: with special reference to their role in developing rural financial markets”, Jeddah: Islamic Research and Training Institute, Research paper no 32 (1996).
15. Danila N. Derivatives: An Islamic Perspective // Journal of International Finance and Economics, 9(3) (200983-90).
16. Nawawi R.H. Islamic Law on Commercial Transactions, (Kuala Lumpur CERT Publication Sdn. Bhd; 2009).